



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

**Karimova E'zoza Gapirzhanovna** – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

**Shoumarov G. B.** – Doctor of Psychological Sciences, Academician

**Qirg'izboyev A. K.** – Doctor of Historical Sciences, Professor

**Jamoldinova O.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Sharipov Sh.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Shermuhhammadov B.Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Ma'murov B.B.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Madraximova F.R.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Kalonov M.B.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Nabiyev D.X.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Koldoshev K. M.** – Doctor of Economic Sciences, Professor

**Ikramxanova F.I.** – Doctor of Philological Sciences, Professor

**Ismagilova F.S.** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

**Stoyuxina N.Yu.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

**Magauova A.S.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

**Rejep O'zyurek** – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

**Wookyu Cha** – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

**Polonnikov A.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

**Mizayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Baybayeva M.X.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Muxsiyeva A.T.** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**Aliyev B.** – Doctor of philosophy, professor

**Abdullayeva N. Sh.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

**Doniyorov S. M.** – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

**Gafurov D. O.** – Doctor of Philosophy (PhD)

**Shomurodov R.T.** – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

**Mirzayeva F. O.** – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

**Jalilova S.X.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Bafayev M.M.** – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Usmonova D.I.** – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

**Saifnazarov I.** – Doctor of philosophy, professor

**Nematov Sh.E.** – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

**Tillashayxova X.A.** – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva F.I.** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

**Yuldasheva D.B.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

**Tangriyev A.T.** – is a professor of Tashkent State University of Economics

**Ashurov R. R.** – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

**Panjiyev M. A.** – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

**Khudaiberganov N. A.** – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
<b>Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna</b>	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish .....	15
<b>Elmanov Abbas Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich</b>	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli .....	19
<b>Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
<b>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</b>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari .....	28
<b>Gulmira Jumanova</b>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati .....	33
<b>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi .....	37
<b>Davlatova Zebo Haydarovna</b>	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	40
<b>Ochilova Farida Baxriddinovna</b>	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari .....	44
<b>Qo'chqarova Oysha Oltibayevna</b>	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
<b>Sevara Mamatkarimova</b>	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
<b>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</b>	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
<b>Курбанова Шаира Исмаиловна</b>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
<b>Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi</b>	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari .....	63
<b>Muminova Feruza Farxodovna</b>	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati .....	70
<b>Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li</b>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish .....	74
<b>Saidova Dilnoza Maripovna</b>	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
<b>Дмитрий Валерьевич Пупонин</b>	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям .....	82
<b>Муксинова Динора Азаматовна</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti .....	87
<b>Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi</b>	
Valeologik tarbiya asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda innovatsion va raqamli yondashuvlar .....	92
<b>Berkinova Charos Islomovna</b>	



Grammatik tushunchalarni o'rgatish metodikasi.....	96
<i>N. R. Masharipova</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quvchilar bilimni baholashda xorijiy tajribalardan foydalanish finlyandiya ta'lim tizimi misolida.....	99
<i>Obidova Muqaddas Ro'ziqulovna</i>	
The Difference Between Androgogy and Pedagogy.....	106
<i>Pardayeva Aziza Rahmatillojevna</i>	
Elektr mashinalari fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari.....	110
<i>Shodiyeva Nozina Shuxrat qizi</i>	
Umumta'lim maktablarida direktor o'rinbosarlarining aksiologik yondashuv asosida boshqaruv funksiyalari va vakolatlari hamda maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish yo'llari.....	113
<i>Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li</i>	
Ispan tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari .....	119
<i>Tursunqulov Sanjar Dilmurod o'g'li, Shukurullayeva Feruza Dilmurodovna</i>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlarining qo'llanilishi .....	124
<i>Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda empatiya hissini shakllantirishning nazariy asosi .....	127
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Bahodirovna</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi .....	130
<i>Raximova Dilshoda Xoliqberdiyevna</i>	
Bo'lajak sport murabbiylarida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari .....	134
<i>Sherzod Shuxratovich Boboyorov</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari.....	138
<i>Sangirov Nuriddin Iriskulovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrativ modeli .....	142
<i>Rasulova Umida Bahodir qizi</i>	
Yashil pedagogikaning konseptual modeli va tamoyillari.....	146
<i>Raxmatova Dilnoza Abdurashidovna</i>	
Ta'lim jarayoni ishtirokchilarida emotsional barqarorlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari ..	149
<i>Boymatova Munavvar Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi.....	152
<i>Lukmonova Salomat Gafurovna</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining shakl, metod va vositalari .....	157
<i>Farmonova Madina Bahriddin qizi</i>	
Innovatsion boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilish va kommunikatsiya samaradorligi .....	161
<i>Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning media savodxonligini shakllantirish metodikasi.....	167
<i>Choriyeva Xurmo Panji qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislari malakasini oshirish tizimining zamonaviy tendensiyalari va raqamlashtirish jarayonlarining pedagogik ahamiyati.....	172
<i>Qosimova Sh. N., Dusmaxamedov A. A.</i>	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	177
<i>Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi</i>	
STEAM loyihalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish .....	181
<i>Mirjamolova Moxira Abdugaffor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati va metodik asoslari.....	188
<i>Axmad Bolqiyev</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida baholashning pedagogik asoslari.....	191
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Boshlang'ich ta'limda liderlik va pedagogik menejment muammolari.....	194
<i>Pardaboyev Doston</i>	
Raqamli ta'lim muhiti: tushunchasi, strukturasi va rivojlanish tendensiyalari.....	197
<i>Kulboyeva Dilnoza Abdug'afurovna</i>	
Особенности применения графических органайзеров на практических занятиях по дисциплине "Практикум литературы народов СНГ".....	199
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	
Historical Stages in the Study and Treatment of Scoliosis (Spinal Curvature).....	204
<i>Shermatova Mokhira Baxodir qizi</i>	
Talaba qizlarga badiiy gimnastika cho'qmori yordamida bajariladigan fundamental mashqlarni o'rgatish....	209
<i>Musharafxon Sultanova</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha xalqaro modellarning qiyosiy tahlili.....	213
<i>Ziyotova Madina</i>	
Sport mutaxassislarini tayyorlashda voleybol o'qituvchisining ko'nikmalari va uslubi .....	216
<i>Turg'unov Baxtiyor O'rolovich</i>	
Matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish .....	220
<i>Yusupova Latofat Nuriddinovna</i>	
Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari .....	228
<i>Nasirova Nigora Baxtiyor qizi</i>	
Paraengil atletika mashg'ulotlarida individual yondashuvning ahamiyati .....	233
<i>Abduxoliqova Shoiraxon Akramjon qizi</i>	
Biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish .....	239
<i>Baxrombekova Sojidxon Sherzodjon qizi</i>	
Maktab texnologik ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: o'rta muddatli istiqbollar (2027–2031) .....	245
<i>Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna, Tursunov Sherzod Ziyat o'g'li, Ismatullayev Javohir Ubaydulla o'g'li</i>	
Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali jismoniy tarbiya va sport tizimini boshqarish samaradorligini oshirish .....	251
<i>Eryigitov Dilshod Xolboyevich</i>	
Enhancing Speaking Skills Productively in English .....	255
<i>J. M. Fayzullayev, G. R. Elmonova</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan katta guruh bolalari bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari .....	259
<i>Jumanova Iroda Nomozovna, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</i>	
2–3 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvi: nazariy va empirik tahlil .....	263
<i>Klicheva Dilnoza Zulfon qizi</i>	
Inson–texnika tizimida ta'lim olayotgan talabalarda iste'dod namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari .....	267
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarning mutaxassis sifatida shakllanishida xavotirlanish holatining namoyon bo'lishi.....	270
<i>Nuriddinov Rasuljon Samitjon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuv.....	274
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Kodirova Albina Faridovna</i>	
Talabalarda qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	279
<i>Rajabova Go'zal Zarifovna</i>	
Musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikning tezkorlikka ta'siri.....	283
<i>Sitora Elova Axmatkulovna</i>	



Pediatriya ta'limida sun'iy intellekt – talaba uchun virtual assistent.....	287
<b>Umarkulov Muhtorali Islomkulovich</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida jismoniy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	290
<b>Xakimov Xurshid Nozimovich</b>	
Сущность и виды познавательной активности детей 5–6 лет.....	294
<b>Джамилова Н. Н., Кудратова М. У.</b>	
Uzluksiz ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning pedagogik-psixologik masalalari.....	298
<b>Siddiqova Sanobar Xaydarovna</b>	
Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish, ijodiy faolligini oshirish.....	301
<b>Siddiqova Sanobar Xaydarovna, Qushoqova Guzal</b>	
Badiiy adabiyotda Ibn Sino obrazining yaratilishidagi o'ziga xosliklar.....	304
<b>Tangirov A. J.</b>	

# MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK YONDASHUV

Nuriddinova Maysara Ikramovna

Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti

Kodirova Albina Faridovna

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning zamonaviy psixologik va pedagogik yondashuvlari kompleks tarzda tadqiq etilgan. Bolaning maktabga tayyorgarligi faqatgina o'qish va yozish ko'nikmalarini egallash emas, balki kognitiv, ijtimoiy-emotsional, jismoniy va motivatsion jihatdan yetuklikni talab etuvchi murakkab jarayon ekanligi ilmiy asoslangan. Tadqiqotda an'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, bolaga yo'naltirilgan ta'lim, o'yin texnologiyalari hamda ijtimoiy-emotsional rivojlanishga urg'u beruvchi zamonaviy metodikalarning samaradorligi tahlil qilingan. Mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy o'rganilib, O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlar fonida amaliyotga joriy etilayotgan innovatsion dasturlarning natijadorligi baholangan. Shuningdek, tarbiyachilar va ota-onalar hamkorligining psixologik mezonlari ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, kognitiv yondashuv, motivatsiya, o'yin faoliyati, inqiroz davri, pedagogik diagnostika.

**Abstract:** This article comprehensively explores modern psychological and pedagogical approaches to preparing children for school education in preschool educational institutions. It is scientifically substantiated that a child's readiness for school is a complex process that requires not only the acquisition of reading and writing skills but also cognitive, socio-emotional, physical, and motivational maturity. The study analyzes the effectiveness of modern methods focused on child-centered learning, play technologies, and socio-emotional development, as opposed to traditional approaches. A comparative study of the scientific views of local and foreign scientists was conducted, and the effectiveness of innovative programs introduced into practice against the background of reforms in the preschool education system of Uzbekistan was evaluated. Furthermore, psychological criteria for cooperation between educators and parents were developed.

**Key words:** preschool education, psychological readiness, socio-emotional development, cognitive approach, motivation, play activity, crisis period, pedagogical diagnostics.

**Аннотация:** В данной статье комплексно исследованы современные психолого-педагогические подходы к подготовке детей к школьному обучению в дошкольных образовательных учреждениях. Научно обосновано, что готовность ребенка к школе – это сложный процесс, требующий не только овладения навыками чтения и письма, но и когнитивной, социально-эмоциональной, физической и мотивационной зрелости. В исследовании проанализирована эффективность современных методик, ориентированных на личностно-ориентированное обучение, игровые технологии и социально-эмоциональное развитие, в отличие от традиционных подходов. Проведено сравнительное изучение научных взглядов отечественных и зарубежных ученых, оценена результативность инновационных программ, внедряемых в практику на фоне реформ в системе дошкольного образования Узбекистана. Также разработаны психологические критерии сотрудничества воспитателей и родителей.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, психологическая готовность, социально-эмоциональное развитие, когнитивный подход, мотивация, игровая деятельность, кризисный период, педагогическая диагностика.

## KIRISH

Maktabgacha yosh davri inson shaxsiyati, uning intellektual salohiyati va ijtimoiy moslashuvchanligi shakllanadigan eng muhim va poydevor bosqich hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimining dastlabki bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalarining (MTM) roli tubdan o'zgarib bormoqda. Bugungi kunda bolalarni maktabga tayyorlash shunchaki ma'lum bir bilimlar yig'indisini (harflarni tanish, sanash) berishdan iborat emas,



balki ularda mustaqil fikrlash, o'quv faoliyatiga qiziqish, ijtimoiy muloqot ko'nikmalari va emotsional barqarorlikni shakllantirishni taqozo etadi.

So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish, ta'lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining joriy etilishi bolaga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etishda muhim burilish bo'ldi <sup>[1]</sup>.

Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida hamon ba'zi ziddiyatlar va muammolar saqlanib qolmoqda. Ota-onalar va ayrim tarbiyachilar tomonidan maktabga tayyorgarlik deganda faqat akademik bilimlarni (erta o'qish va yozish) o'rgatish tushunilishi, bolaning psixologik va emotsional tayyorgarligi e'tibordan chetda qolishiga olib kelmoqda. Bu esa 1-sinfga qadam qo'ygan bolalarda jiddiy psixologik zo'riqishlar, o'qishga nisbatan motivatsiyaning yo'qolishi va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Bolaning maktabga tayyorgarligi – bu tizimli va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u uchta asosiy komponentni o'z ichiga oladi: jismoniy tayyorgarlik (sog'liq holati, mayda motorika, harakatlar koordinatsiyasi), intellektual tayyorgarlik (diqqat, xotira, tafakkur, nutq rivojlanishi) va shaxsiy-ijtimoiy (motivatsion) tayyorgarlik (tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qila olish, o'z xatti-harakatlarini boshqarish, maktabga borish istagi). Maktabgacha yoshning oxiriga kelib bolada L.S. Vigotskiy ta'biri bilan aytganda "yetti yosh inqirozi" yuz beradi <sup>[2]</sup>. Bu inqiroz o'yin faoliyatidan o'quv faoliyatiga o'tishdagi keskin psixologik o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Aynan shu davrda to'g'ri psixologik-pedagogik yondashuvning tanlanishi bolaning kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashning zamonaviy psixologik va pedagogik mexanizmlarini chuqur tahlil qilish, an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning qiyosiy samaradorligini o'rganish hamda amaliyotda qo'llash uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ob'ekti sifatida bolani maktabga tayyorlashdagi kognitiv va ijtimoiy-emotsional jarayonlar olingan bo'lsa, predmeti maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanilayotgan pedagogik va psixologik metodikalar hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash muammosi azaldan psixologiya va pedagogika fanlarining eng dolzarb tadqiqot ob'ektlaridan biri bo'lib kelgan. Bu boradagi ilmiy qarashlarni shartli ravishda uchta yirik yo'nalishga ajratish mumkin: klassik rus psixologik maktabi, zamonaviy g'arb yondashuvlari va mahalliy o'zbek olimlarining milliy mentalitetga asoslangan tadqiqotlari.

Bolaning psixik rivojlanishi va uning maktabga tayyorgarligi masalasi rus psixologiya maktabining namoyandalari L.S. Vigotskiy, D.B. Elkonin, L.I. Bojovich, A.N. Leontyev, A.V. Zaporozetslar tomonidan chuqur o'rganilgan <sup>[2, 3, 4]</sup>.

L.S. Vigotskiyning "Yaqin rivojlanish hududi" nazariyasi maktabgacha ta'lim pedagogikasi uchun fundamental asos bo'lib xizmat qiladi. Uning fikricha, bolaning ta'lim olish jarayoni uning biologik yetilishidan oldinda yurishi kerak, bunda kattalarning (tarbiyachi, ota-ona) yo'naltiruvchi roli beqiyosdir. Shuningdek, Vigotskiy maktabga psixologik tayyorgarlikni intellektual jarayonlardan ko'ra ko'proq bolaning o'z ixtiyoriyligini (xatti-harakatlarini ongli boshqara olish qobiliyatini) shakllantirishda ko'rgan.

D.B. Elkonin va A.V. Zaporozets tadqiqotlarida maktabgacha yosh davridagi asosiy yetakchi faoliyat – bu syujetli-rolli o'yinlar ekanligi uqtiriladi <sup>[3]</sup>. Elkonin o'yin orqali bola jamiyatdagi ijtimoiy rollarni o'zlashtirishi, qoidalarga bo'ysunishni o'rganishi va aynan o'yin ichida o'quv faoliyatining elementlari shakllanishini isbotlab bergan.

L.I. Bojovich esa masalaga shaxsning shakllanishi nuqtai nazaridan yondashib, bolaning maktabga motivatsion tayyorgarligi muhimligini ta'kidlaydi <sup>[4]</sup>. Uning fikricha, "o'quvchining ichki pozitsiyasi" shakllanmas ekan, bola qanchalik aqlli bo'lmasin, maktabda o'qishga qiynaladi.

O'zbekistonlik olimlar muammoga milliy qadriyatlar, o'zbek oilasi va etnopsixologik xususiyatlarni inobatga olgan holda yondashganlar. Pedagogika fanlari doktori F.R. Qodirova o'z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va ularni maktabga tayyorlashda uzviylik masalalarini keng yoritgan <sup>[5]</sup>. Uning ta'kidlashicha, bog'cha va maktab o'rtasidagi vorisiylik nafaqat dasturlar darajasida, balki pedagogik muloqot uslubida ham ta'minlanishi shart.

Sh.A. Sodiqova va O. Hasanboyeva kabi olimlar maktabgacha ta'lim pedagogikasi, xususan, bolalarning ijtimoiy-axloqiy tarbiyasi va oila hamda MTM hamkorligi borasida chuqur ilmiy asoslangan xulosalar berganlar <sup>[6, 7, 8]</sup>. Sodiqovanning asarlarida bolani maktabga tayyorlashda mehnat tarbiyasi va mustaqillikni shakllantirish muhim omil sifatida ko'rsatiladi.

Psixolog olimi Z.T. Nishanova bolalarni maktabga tayyorlashning psixodiagnostik jihatlarini o'rganib, intellektual va emotsional tayyorgarlikni o'lchashning milliy sharoitlarga moslashtirilgan metodikalarini ishlab chiqish zaruratini ilgari surgan <sup>[9]</sup>.

Mahalliy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalqi mentalitetidagi kattalarga so'zsiz itoat etish va jamoaviylik hissi bolalarni tartibga o'rgatishda qo'l kelsa-da, ba'zan ularning kreativ fikrlashi va mustaqil tashabbus ko'rsatishiga ma'lum ma'noda to'siq bo'lishi mumkin. Shuning uchun bugungi mahalliy tadqiqotlarda milliy tarbiya an'analarini saqlagan holda shaxsga yo'naltirilgan erkin ta'limni sintez qilish masalasi dolzarbdir.

G'arb psixologiyasida J. Piaje va E. Eriksonlarning kognitiv va psixososyal rivojlanish nazariyalari bolalarni maktabga tayyorlash amaliyotining negizini tashkil qiladi. Xususan, zamonaviy Evropa va Amerika maktabgacha ta'limida (masalan, Reggio Emilia, Montessori, Valdorf pedagogikasi) akademik bilimlarni yodlatish (drill and practice) qattiq tanqid qilinadi. Buning o'rniga ijrochi funksiyalarni (Executive functions) va ijtimoiy-emotsional o'rganishni (Socio-Emotional Learning - SEL) rivojlantirish birinchi o'ringa chiqadi. Ijrochi funksiyalar – bu ishchi xotira, kognitiv egiluvchanlik va o'z-o'zini nazorat qilishni o'z ichiga oluvchi miya jarayonlari bo'lib, xalqaro tadqiqotlar aynan shu funksiyalari yaxshi rivojlangan bolalar maktabda yuqori akademik natijalarga erishishini tasdiqlagan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va empirik kuzatuv metodlariga asoslangan. Maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi:

1. **Nazariy tahlil metodi:** Mahalliy va xorijiy psixologik, pedagogik, sotsiologik adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va davlat ta'lim standartlari ("Ilk qadam" dasturi) o'rganildi va qiyosiy tahlil qilindi <sup>[1]</sup>.
2. **Kuzatish va suhbat metodi:** O'zbekiston Respublikasining turli hududlarida (shahar va qishloq) joylashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida tarbiyachi va bolalar ishtirokida maxsus maqsadli kuzatuvlar olib borildi. Shuningdek, tarbiyachilar va ota-onalar o'rtasida bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi haqidagi tasavvurlarini aniqlash maqsadida chuqurlashtirilgan suhbat va so'rovnomalar o'tkazildi.
3. **Psixologik diagnostika metodikasi:** Bolalarning maktabga qanchalik tayyor ekanligini amaliy jihatdan o'lchash uchun modifikatsiya qilingan Y.Y. Kravtsovaning "Maktabga psixologik tayyorgarlik" metodikasi va maktab yetukligini aniqlovchi "Kern-Yirasek" test-so'rovnomasidan foydalanildi <sup>[10]</sup>. Ushbu vositalar yordamida bolalarning intellektual salohiyati bilan bir qatorda emotsional-irodaviy sferasi (maktabga borish motivatsiyasi) hamda psixomotorikasi o'lchandi.

Tadqiqot obyekti sifatida maktabga tayyorlov (6-7 yosh) guruhlarining tarbiyalanuvchilari jalb etildi. Ishtirokchilar ikkita teng guruhga ajratildi:

Bu guruhlarda mashg'ulotlar an'anaviy pedagogik yondashuv (asosan o'qish, yozish va matematikaga erta o'rgatishga qaratilgan, qat'iy tartib-intizomni talab qiluvchi akademik mashg'ulotlar) asosida olib borildi.

Tajriba (eksperimental) guruhi tashkil etildi. Bu guruhda o'quv jarayoni to'liq o'yin faoliyatiga asoslangan, bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga (o'z hissiyotlarini tushunish, jamoada ishlash, nizolarni hal qilish) urg'u beruvchi va erkinlikni ta'minlovchi zamonaviy psixologik yondashuvlar negizida tashkil etildi.

Shuningdek, tadqiqotga mazkur MTMLarning tarbiyachilari va bolalarning ota-onalari maxsus so'rovnomalar orqali jalb qilindi. Psixologik diagnostika ishlari o'quv yilining boshida (sentyabr) kirish testi va o'quv yilining oxirida (may) yakuniy nazorat testi shaklida o'tkazildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan psixologik va pedagogik diagnostika natijalari an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar o'rtasidagi farqni yaqqol ko'rsatib berdi. O'quv yili boshida har ikkala guruhdagi bolalarning tayyorgarlik ko'rsatkichlari taxminan bir xil darajada (statistik ahamiyatli farqsiz) bo'lgan bo'lsa, o'quv yili yakuniga kelib quyidagi tafvutlar kuzatildi.

Tadqiqotning ikkinchi yo'nalishi ota-onalar va tarbiyachilarning bolani maktabga tayyorlash jarayoniga nisbatan psixologik munosabatini o'rganishga qaratildi. Ota-onalar o'rtasida o'tkazilgan "Farzandingizning maktabga tayyorligini qanday baholaysiz?" mavzusidagi so'rovnoma natijalari o'zbek oilalaridagi mavjud stereotiplarni ochib berdi. Natijalarga ko'ra, ota-onalarning 68 foizi bolaning maktabga tayyorgarligini faqatgina uning harflarni tanishi, 100 gacha sanay olishi va ingliz yoki rus tilida she'rlar yodlagani bilan o'lchashini bildirgan. Ularning bor-yo'g'i 15 foizigina bolaning psixologik va emotsional barqarorligi, mustaqil kiyina olishi yoki e'tiborini bir joyga jamlay olishini muhim omil sifatida ko'rsatgan.



Tarbiyachilar bilan o'tkazilgan intervyularda oydinlashdiki, joriy etilayotgan "Ilk qadam" davlat dasturining talablariga qaramay, tarbiyachilarning qariyb 40 foizi ota-onalarning bosimi ostida o'yin faoliyatini qisqartirib, o'rniga maktab dasturidagi "yozuv" va "matematika" darslarini o'tishga majbur bo'lishmoqda.

Empirik tadqiqot natijalari tahlili maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etishda jiddiy psixologik-pedagogik paradokslar mavjudligini tasdiqladi.

**Birinchiidan, kognitiv va emotsional tayyorgarlik o'rtasidagi nomutanosiblik.** Olingan ma'lumotlarga e'tibor qaratsak, kognitiv (intellektual) tayyorgarlik bo'yicha nazorat va tajriba guruhlarida o'rtasida keskin tafovut yo'q (41% ga qarshi 45%). Ya'ni, an'anaviy usulda o'qitilgan bolalar ham xotira va yodlash bo'yicha yaxshi natijalar ko'rsatgan. Biroq, ijtimoiy-emotsional va motivatsion tayyorgarlik kesimida jarayon mutlaqo boshqacha tus olgan. An'anaviy mashg'ulotlarda (majburiy o'tirish, yozish, qaytarish) qatnashgan nazorat guruhi-dagi bolalarning atigi 23 foizi ijtimoiy-emotsional jihatdan yetuk bo'lib chiqqan. Ularning ko'pchiligi yutqazishni qabul qila olmaslik, jamoaviy ishlarda o'z fikrini bayon etishga uyalish va kattalarning ko'rsatmasisiz mustaqil harakat qila olmaslik kabi muammolarga duch kelgan. Zamonaviy, o'yinga yo'naltirilgan tajriba guruhida esa bu ko'rsatkich 58 foizni tashkil etdi. Bu holat D.B. Elkoninning "o'yin yosh davrining yetakchi faoliyatidir" degan qoidasini amalda yana bir bor tasdiqlaydi [9]. O'yin orqali bola hayotiy vaziyatlarni modellashtiradi, unda sun'iy qo'rquv yo'qoladi va ijrochi funksiyalar (o'z xatti-harakatini nazorat qilish) tabiiy ravishda o'sadi.

**Ikkinchiidan, o'quv motivatsiyasining so'nishi sindromi.** Nazorat guruhida motivatsion tayyorgarligi past bolalar 18% ni tashkil etdi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha yoshdagi bolaga 1-sinfning akademik talablarini sun'iy ravishda singdirish bolada L.I. Bojovich ta'kidlagan "o'quvchining ichki pozitsiyasi" shakllanishiga to'sqinlik qiladi [4]. Bola bog'chaning o'zidayoq yozishdan va daftar to'ldirishdan charchaydi. Natijada yetti yosh inqirozi davrida bolada maktabga borish ishtiyoqi o'rniga apatiya va qochish reaksiyasi paydo bo'ladi. Tajriba guruhidagi yuqori motivatsiya (64%) esa o'quv materiallarining qiziqarli tajribalar, didaktik o'yinlar va erkin kashfiyotlar orqali berilganligi bilan izohlanadi.

**Uchinchiidan, ota-onalar pedagogik madaniyatining ta'siri.** Mahalliy olimlardan Sh.Sodiqova va O.Hasanboyevlar o'z xulosalarida MTM va oila hamkorligini ta'kidlaganlari bejiz emas [6, 7, 8]. Tadqiqotimizdagi ota-onalar o'rtasidagi so'rovnomalar natijalari shuni tasdiqlaydiki, jamiyatimizda bolani maktabga tayyorlashning mohiyati noto'g'ri talqin qilinmoqda. Ota-onalarning "Mening farzandim bog'chada o'qish va yozishni o'rganishi shart" degan talabi tarbiyachilarni noto'g'ri metodika qo'llashga majbur qilmoqda. Aslida, barmoq motorikasi (yozishga tayyorgarlik) harflarni yozish orqali emas, balki loydan narsalar yasash, qog'oz qirg'ich, rasm chizish yoki konstruktorlar yig'ish orqali samaraliroq rivojlanadi. O'zbek mentalitetidagi "bolam boshqalardan qolib ketmasin" degan sog'lom raqobat hissi, afsuski, bu o'rinda bolaning psixologik zo'riqishiga olib keluvchi omilga aylanib qolmoqda.

Shuningdek, muhokama natijalari Z.T. Nishanovanning bolalarni maktabga tayyorlashning psixodiagnostik mezonlarini mahallilashtirish g'oyasini tasdiqladi [9]. G'arb metodikalaridagi ayrim ijtimoiy ko'nikmalar (masalan, kattalar bilan to'g'ridan-to'g'ri baxsga kirisha olish) milliy qadriyatlarimizda hurmatsizlik sifatida qabul qilinishi mumkin. Shu sababli, maktabga psixologik tayyorgarlikni ta'minlashda globallashtirish va milliy tarbiya an'analari o'zaro muvofiqlashtirish, bolada mustaqil fikr bilan bir qatorda emotsional intellektni (boshqalarni tushunish, empatiya) rivojlantirish zamonaviy yondashuvning asosiy o'zagini tashkil etishi lozim.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktabga tayyorlash muammosini zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlar asosida o'rganish bo'yicha olib borilgan nazariy va empirik tadqiqotlarimiz qator muhim ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

**Birinchiidan,** bolaning maktabga tayyorgarligi shakl va mazmun jihatidan tubdan qayta ko'rib chiqilishi lozim. Jamiyatda, xususan ota-onalar va ayrim pedagoglar orasida shakllangan "erta o'qish va yozish – maktabga tayyorlikning asosiy belgisi" degan stereotip bolaning psixik rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Tadqiqotimiz shuni isbotladiki, sof akademik bilimlarga zo'r berish bolaning yetti yosh inqirozi davrida o'quv motivatsiyasining pasayishiga va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarga (apatiya, nevrozlar, jamoaga qo'shila olmaslik) olib keladi.

**Ikkinchiidan,** o'yin faoliyati – bolani maktabga tayyorlashning eng qudratli va tabiiy mexanizmidir. Tajriba guruhida qo'llanilgan syujetli-rolli o'yinlar, didaktik va harakatli mashg'ulotlar orqali bolalarda maktab uchun eng zarur bo'lgan ijrochi funksiyalar (o'z xatti-harakatlarini ixtiyoriy boshqarish, e'tiborni jamlash, qoidalarga bo'ysunish) qat'iy tartib-intizomga asoslangan an'anaviy darslarga nisbatan 2,5 barobar samaraliroq rivojlan-gani o'z tasdig'ini topdi.

*Uchinchidan*, bolalarda ijtimoiy-emotsional intellektni (o'z hissiyotlarini ifoda eta olish, empatiya, ziddiyatli vaziyatlardan chiqqa olish) shakllantirish intellektual tayyorgarlikdan aslo kam bo'lmagan ahamiyatga ega. Milliy mentalitetimizdagi qadriyatlarni (kattalarga hurmat, andisha) saqlagan holda, bolalarga o'z fikrini erkin ifoda etish, "yo'q" deyishni o'rganish va mustaqil qaror qabul qilish huquqini berish zamonaviy o'zbek maktabgacha ta'lim pedagogikasining asosiy strategiyalaridan biriga aylanishi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tizimi amaliyoti uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- 1. O'quv dasturlarini maqbullashtirish:** MTMlarning tayyorlov guruhlarida yozish va matematikaga oid mashg'ulotlar ulushini qisqartirib, ularning o'rniga mayda motorikani rivojlantiruvchi art-terapiya (loy, qum, rasm), qiziqarli tajribalar hamda kognitiv egiluvchanlikni oshiruvchi jamoaviy o'yinlar soatini ko'paytirish.
- 2. Pedagogik diagnostikani takomillashtirish:** Bolani maktabga qabul qilishda yoki uning tayyorgarligini baholashda faqatgina uning xotirasi va nutqini emas, balki Z.T. Nishanova va boshqa mahalliy olimlar tomonidan tavsiya etilgan metodikalar asosida uning emotsional-irodaviy sferasi va motivatsion tayyorgarligini ham baholashning yagona milliy standartini joriy etish.
- 3. MTM qoshida "Ota-onalar maktabi" yoki psixologik maslahatxonalar tashkil etish.** Bunda ota-onalarga bolani maktabga tayyorlashda uy sharoitida qilinishi kerak bo'lgan to'g'ri harakatlar (birgalikda kitob o'qish, uy ishlarida mas'uliyat berish, mustaqillikka o'rgatish) bo'yicha muntazam tushuntirish ishlarini olib borish zarur.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy maktab – bu faqatgina bilimlar maskani emas, balki shaxsning ijtimoiy hayotga tayyorlanish maydonidir. Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlash ularni "kichik akademiklar"ga aylantirish emas, balki qiziquvchan, o'ziga ishongan, jismonan va ruhan sog'lom, o'qishga va izlanishga ishtiyoqi baland shaxslarni tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i darkor.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Илк қадам" давлат ўқув дастури (Такомиллаштирилган иккинчи нашр) // Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги. – Тошкент, 2022. – 123 б. URL: <https://mdo.uz/oz/document/ilk-qadam-davlat-oquv-dasturi>
2. Выготский Л.С. Психология развития ребенка // Москва: Смысл, Эксмо, 2004. – 512 с.
3. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте // Питер: Психология классика. – Санкт-Петербург, 2008. – 400 с.
4. Қодирова Ф.Р., Тошпўлатова Ш.Қ., Аъзамова М.Н. Мактабгача педагогика // Тошкент: Маънавият, 2013. – 345 б.
5. Содиқова Ш.А. Мактабгача педагогика: олий ўқув юртлари учун дарслик // Тошкент: Тафаккур бўстони, 2013. – 288 б.
6. Хасанбоева О.У. ва бошқ. Мактабгача таълим педагогикаси // Тошкент: Илм зиё, 2012. – 256 б.
7. Sodiqova Sh.A. Preparing children for school education as a socio-pedagogical problem // Modern Education : electronic scientific journal. 2018. 4(65). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-maktabga-tayyorlash-izhtimoiy-pedagogik-muammo-sifatida>
8. Нишанова З.Т., Алимбаева Ш.Т., Сулаймонов М. Психологик хизмат. Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2014.– 320 б.
9. Кравцова Е.Е. Психологические проблемы готовности детей к обучению в школе // Москва: Педагогика, 1991. – 152 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.